

# OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

## Smartpos Supply Tizimidan foydalanish tartibi

Tasdiqlash sanasi \_\_\_\_\_

Toshkent shahri

Mazkur ommaviy Oferta (bundan keyin - Oferta, Shartnoma) “CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION” (“RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION ISHLANMALAR MARKAZI”) (bundan keyin - Operator) Mas’uliyati cheklangan jamiyat tomonidan Yuridik shaxslar va Yakka tartibdagi tadbirkorlarga (bundan keyin- Foydalanuvchi) elektron platformadan foydalangan holda texnologiyalarni qo‘llashga asoslangan tovarlar oldi-sotdisini amalga oshirishga imkon beruvchi Smartpos Supply Tizimi (bundan keyin - Tizim)ning funksional imkoniyatlaridan tovarlar va ularning xaridi haqidagi axborotga kirishni taqdim etuvchi xizmatlarni taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-moddasiga binoan ushbu hujjat ommaviy oferta hisoblanadi, va quyida bayon etilgan shartlar qabul qilingan taqdirda, ushbu Ofertani Ofertada ko‘rsatilgan usullardan birida Aksept qilgan Foydalanuvchi Ofertada ko‘rsatilgan shartlar bo‘yicha Shartnomani tuzishga teng deb hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, Foydalanuvchiga Operatorning [www.supply.smartpos.uz](http://www.supply.smartpos.uz) rasmiy saytida (bundan keyin - Sayt) joylashtirilgan ushbu Oferta matnini (shu jumladan, vaqt o‘tishi bilan kiritilgan o‘zgartirishlar) diqqat bilan tanishib chiqishi va Oferta shartlariga rozi bo‘lmagan taqdirda, Oferta Akseptini amalga oshirmaslik tavsiya etiladi.

Oferta akseptini amalga oshirib, Foydalanuvchi tanishib chiqqanligini, unga to‘liq va so‘zsiz roziligini, Oferta matnida ko‘rsatilgan barcha shartlarni qabul qilishini kafolatlaydi.

Operator [www.supply.smartpos.uz](http://www.supply.smartpos.uz) Saytida o‘zgartirishlar kiritib, mazkur Oferta shartlarini, tarif rejalarini, Tizimning funksional imkoniyatlarini o‘zgartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Ushbu Ofertaga kiritilgan o‘zgartirishlar, agar joylashtirishda boshqa qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ular Saytda e‘lon qilingan kundan boshlab 10 (o‘n) kalendar kundan keyin kuchga kiradi.

Mazkur Shartnoma ikki tomonlama imzolaniшни talab qilmaydi, Foydalanuvchi tomonidan Aksept amalga oshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va elektron shaklda amal qiladi.

### 1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Mazkur Oferta maqsadida keltiriladigan atamalar va ta'riflardan quyidagi mazmunda foydalaniladi:

**Smartpos Supply Tizimi** — bu Internetda joylashtirilgan o‘zaro bog‘langan veb-sahifalar to‘plami, u Foydalanuvchiga harakatlarni amalga oshirishga imkon beruvchi funksiyalar to‘plamini, jumladan, nashr qilish, foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan mahsulotlar haqida kerakli ma‘lumotlarni taqdim etish va h.k. larni o‘z ichiga olgan xizmatdir.

“CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION” MChJ (STIR: 306 344 019), O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq ro‘yxatdan o‘tgan, o‘z xodimlari ishtirokida ma‘muriy tizimni amalga oshiruvchi — Smartpos Supply Tizimi Egasi.

**Foydalanuvchi** – Oferta shartlarini qabul qiluvchi va mazkur Smartpos Supply xizmatidan foydalanish Shartnomasini tuzuvchi yuridik shaxs va/yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

**Login** – Foydalanuvchining Shaxsiy kabinetiga kirishda foydalanadigan harflar, raqamlar, belgilar birikmasi.

**Tovar** — Tizim platformasida sotuvga taqdim etilgan Xaridor va Sotuvchi o‘rtasida tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining predmeti. Tovarlarini sotib olish va sotish bilan bog‘liq barcha munosabatlar faqat Tovarni Tizimga joylashtirgan Sotuvchi va Xaridor o‘rtasida yuzaga keladi.

**Aksept** – Foydalanuvchi tomonidan mazkur Oferta shartlarining to‘liq va so‘zsiz qabul qilinishi. Shartnoma shartlarida bayon etilgan harakatlarning amalga oshirilishi mazkur Ofertaning aksepti hisoblanadi.

**Shaxsiy kabinet** – Foydalanuvchining ro‘yxatdan o‘tish vaqtida yaratilgan, uning vositasida Tizimdan foydalanish va Buyurtmalarni rasmiylashtirish amalga oshiriladigan Foydalanuvchining Tizimda shaxsiylashtirilgan sahifalar majmui. Shaxsiy kabinetga kirish Foydalanuvchining autentifikatsion ma‘lumotlarini kiritish yo‘li bilan ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng amalga oshiriladi.

**Autentifikatsion ma‘lumotlar** – Foydalanuvchi shaxsiy kabinetiga kirishi uchun foydalanadigan uning o‘ziga xos identifikatori (logini) va paroli.

**Shaxsiy ma‘lumotlar** – Foydalanuvchining xizmatlar taqdim etish tartibida ishlov beriladigan elektron axborot resurslari, yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkorga tegishli bo‘lgan har qanday axboroti.

**Kontent va materiallar** – Tizimda joylashtirilgan yoki Tarqatmada mavjud bo‘lgan har qanday Operatorning intellektual mulk obyektlari, tasvirlar, chizmalar, fotosuratlar, rasmlar, videolar, dasturlar, tovushlar, xarid interfeyslari, logotiplar, savdo belgilari, Tizimning mazmuni bo‘lgan va unga joylashtirilgan kompyuter kodlari.

Mazkur Ofertada 1-bo‘limda o‘z aksini topmagan atamalar qo‘llangan holda ular O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Internet tarmog‘ida yuzaga kelgan ishbilarmonlik muomalasi odatlariga muvofiq qo‘llanilishi va talqin etilishi lozim.

### 2. OFERTA PREDMETI

2. 1. Ushbu Ofertaning predmeti Foydalanuvchiga Smartpos Supply xizmatidan va uning funksional imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun xizmatlarni taqdim etishdan iborat.

2. 2. Foydalanuvchi ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq Xizmatdan foydalanishga majbur.
2. 3. Xizmatdan foydalanish uchun Foydalanuvchiga mazkur Oferta bilan tanishib chiqish, uni qabul qilish va Xizmatdan [www.supply.smartpos.uz](http://www.supply.smartpos.uz) saytida joylashtirilgan yo'riqnomaga muvofiq ro'yxatdan o'tishi lozim bo'ladi. Ushbu Ofertaning qabul qilinishi mazkur Shartnomaning Aksepti hisoblanib, bu Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tguniga qadar mazkur Shartnoma shartlari bilan to'liq hajmda tanishib chiqishini anglatadi, ushbu Shartnomaning barcha shartlarini to'liq hajmda hech qanday istisno va cheklovlarisiz qabul qiladi, Shartnomaga qo'shiladi va unga rioya qilish majburiyatini oladi. Foydalanuvchi Shartnoma qoidalari bilan kelishmagan holda Xizmatdan foydalanish, shuningdek, Ro'yxatdan o'tish jarayoni darhol to'xtatilishi lozim.
2. 4. Foydalanuvchi mazkur Shartnomani qabul qilar ekan, o'zining huquqiy layoqati va huquqiy qobiliyatini, ro'yxatdan o'tish vaqtida uning tomonidan kiritilgan ma'lumotlarning aniqligi, ishonchligi, dolzarbligini tasdiqlaydi va noto'g'ri yoki to'liqsiz axborot taqdim etishi natijasida kelib chiqqan noqulay oqibatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.
2. 5. Operator tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar hajmi Oferta shartlari bilan cheklangan. Operator Bitimning ishtirokchisi, tashkilotchisi, xaridor, yetkazib beruvchi, ish beruvchi, vositachi, agent, qandaydir sotuvchi, xaridor, foyda ko'ruvchi yoki Foydalanuvchilar o'rtasidagi bitimlar bo'yicha boshqa manfaatdor shaxsning vakili emas. Foydalanuvchilar Operatorning bevosita yoki bilvosita ishtirokisiz yoki nazoratisiz bitimlar tuzish uchun Tizimda joylashtirilgan ma'lumotlardan foydalanadilar.
2. 6. Operator texnik imkoniyatlarni hisobga olgan holda xizmatlarni taqdim etadi. Foydalanuvchi Oferta akseptini amalga oshirar ekan, taqdim etilayotgan xizmatlar murakkab elektron xizmat ekanligi, Operatorning nazorati ostida bo'lmagan juda ko'p turli xil omillarga bog'liq ekanligi haqida xabardor va tushunadi (aloqa kanallarining ishlashi, foydalaniladigan serverlarning qoidalari va API'dagi o'zgarishlar, xabarlarini yetkazib berish xizmatlari va boshqalar). Shu munosabat bilan xizmatlarning uzluksiz taqdim etilishi kafolatlanmaydi, uzilishlar yuzaga kelishi mumkin.
2. 7. Shartnoma agar bunday joylashtirishda o'zgartirishlar kuchga kirishining uzoqroq muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, o'zgartirishlar kuchga kirgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kundan kechiktirmay, Operator tomonidan bir tomonlama tartibda, Foydalanuvchi bilan oldindan kelishilmagan holda, o'zgartirishlarni [www.supply.smartpos.uz](http://www.supply.smartpos.uz) saytiga joylashtirish orqali o'zgartirilishi mumkin. O'zgartirishlar saytda e'lon qilingan vaqtdan boshlab, Foydalanuvchi Operator tomonidan kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida xabardor qilingan hisoblanadi. Foydalanuvchi Operator tomonidan kiritilgan o'zgartirishlar bilan rozi bo'lmagan taqdirda, bunday o'zgartirishlar kuchga kiradigan sanadan oldin tegishli ariza yuborish orqali Shartnomadan voz kechish huquqiga ega. Operatorning bunday arizani 10 kun ichida qabul qilmaganligi, Foydalanuvchi tomonidan Shartnomaning o'zgartirilgan shartlarini so'zsiz qabul qilishini anglatadi. Operator Foydalanuvchilarga mazkur Shartnoma shartlarini uni o'zgartirish va/yoki to'ldirish maqsadida [www.supply.smartpos.uz](http://www.supply.smartpos.uz) saytida muntazam ravishda kuzatib borishni tavsiya etadi. Foydalanuvchi ushbu Ofertaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish Shartnomaga Aksept yo'li bilan tuzilgan va Tomonlar o'rtasida amalda bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishiga olib kelishiga va ular mazkur Shartnomadagi bunday o'zgartirishlar bilan bir vaqtda kuchga kirishiga rozi bo'ladi. Ushbu Taklif Tizimning barcha mavjud va amalda ishlayotgan funksiyalarini, shuningdek, ularning har qanday keyingi o'zgarishlari va kelgusida yuzaga keladigan qo'shimcha xizmatlarini qamrab oladi.
2. 8. Saytda va Tizimda joylashtirilgan barcha obyektlarga nisbatan istisnoli huquqlar Operatorga tegishli, ya'ni Operator dizayn elementlari, matnlar, grafikalar, illyustratsiyalar, videolar, skriptlar, dasturlar va boshqa obyektlar (kontent) bo'yicha istisnoli huquqlarga ega. Operator Tizimni boshqaradi, uning tuzilishini, ko'rinishini belgilaydi, Foydalanuvchilarning Tizimga kirishiga ruxsat beradi yoki cheklaydi, unga tegishli boshqa huquqlarni amalga oshiradi.
- 2.9. Tizimdan foydalanishga mazkur Shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida ruxsat beriladi. Tizimga kirish haq evaziga taqdim etiladi. Tizimdan to'liq foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritish uchun Foydalanuvchi ko'rsatmalarga muvofiq ixtiyoriy ravishda Ro'yxatdan o'tishi kerak. Ro'yxatdan o'tish barcha bosqichlar muvaffaqiyatli o'tilgan taqdirdagina yakunlangan hisoblanadi. Tizimda ro'yxatdan/identifikatsiyadan o'tgandan Foydalanuvchiga Shaxsiy kabinetga kirish huquqi beriladi.
2. 10. Tizim Xaridorga Tovarlar haqida ma'lumot izlash, yetkazib beruvchilardan mahsulot takliflari va ma'lumotlarini olish, shuningdek, boshqa funksiyalardan foydalanish imkonini beradi. Tizimni rivojlantirish jarayonida Foydalanuvchi uchun mavjud variantlar ro'yxati Operator tomonidan Foydalanuvchini oldindan ogohlantirmasdan o'zgartirilishi mumkin.
- 2.11. Tizim haqoratli so'zlardan foydalanishni, qo'pol muloqot qilishni, Operator imidjiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, behayo ko'rinishga ega bo'lgan, boshqa shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini, huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini ma'lum darajada poymol etuvchi ma'lumotlar va tovarlarni yoki diniy, irqiy va milliy adovatni qo'zg'atuvchi chaqiriqlarni, shuningdek, O'zbekiston qonunchiligini va mualliflik huquqini buzuvchi har qanday materiallarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarni joylashtirishni taqiqlaydi. Qoidabuzarliklar aniqlangan hollarda, Foydalanuvchi to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

### 3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3. 1. Operatorning majburiyatlari:

3. 1. 1. Foydalanuvchiga Ro'yxatdan o'tgandan so'ng Tizimga kirishni ta'minlash, shuningdek, ushbu Oferta shartlariga muvofiq xizmatlarni haq evaziga taqdim etish.

3. 1. 2. Foydalanuvchiga mazkur Shartnomaning 1-ilovasida belgilangan boshqa xizmatlar, ro'yxati, bayoni va narxini taqdim etish.
3. 1. 3. Foydalanuvchi Tizimning qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilganda, Foydalanuvchi bilan barcha nizolarni hal qilish. Agar biron bir masala ushbu Ofertaga muvofiq tartibga solinmagan bo'lsa, Operator muayyan vaziyatda qanday yo'l tutishni mustaqil ravishda hal qiladi.
3. 1. 4. Ushbu Ofertada boshqa qoida nazarda tutilgan hollardan tashqari, Xizmatning haftada 7 kun, shu jumladan, dam olish va bayram kunlarida tunu-kun ishlashini ta'minlash. Shuningdek, tizimning barqaror ishlashini ta'minlash, uni bosqichma-bosqich takomillashtirish va ishdagi xatolarni tuzatish uchun oqilona harakatlarni amalga oshirish.
3. 1. 5. Foydalanuvchiga texnik yordam ko'rsatish.
3. 2. Operator quyidagi huquqlarga ega:
  3. 2. 1. Foydalanuvchi bilan oldindan kelishilmagan holda xizmatlar ko'rsatish yo'llari va usullarini mustaqil ravishda belgilash.
  3. 2. 2. Mazkur Shartnomaga muvofiq o'z vaqtida to'lovni talab qilish.
  3. 2. 3. Foydalanuvchi ushbu Oferta shartlarini buzgan taqdirda, Foydalanuvchini oldindan ogohlantirmasdan, istalgan vaqtda bir tomonlama tartibda Tizimning ayrim yoki barcha funksiyalari, imkoniyatlari, bo'limlariga kirishini to'xtatib turish, cheklash yoki to'xtatish. Shu bilan birga, Operator bunday harakatlar tufayli Foydalanuvchiga yetkazilishi mumkin bo'lgan har qanday zarar uchun javobgar emas (jumladan, Foydalanuvchi ma'lumotlarini o'chirgan taqdirda ham).
  3. 2. 4. Foydalanuvchining roziligisiz reklama va/yoki boshqa ma'lumotlarni joylashtirish, Foydalanuvchi bilan telefon suhbatlarini yozib olish.
  3. 2. 5. Istalgan vaqtda ushbu Ofertani bir tomonlama tartibda o'zgartirish, mazmunini, funksional imkoniyatlarini Foydalanuvchini xabardor qilmasdan va uning roziligini olmasdan [www.supply.smartpos.uz](http://www.supply.smartpos.uz) <http://www.smartpos.uz> saytlarida e'lon qilish orqali yangilash.
  3. 2. 6. Zarur rejalashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda rejadan tashqari ishlarni bajarish uchun Tizimning ishlashini to'xtatib turish.
  3. 2. 7. Tizim ishini agar bu, xususan, uchinchi shaxslarning harakati va/yoki harakatsizligiga asoslangan holda, jumladan, avariya vaziyatda Tizim ishiga bevosita ta'sir ko'rsatsa, to'xtatib qo'yish.
  3. 2. 8. Operator Foydalanuvchini oldindan ogohlantirmasdan va hech qanday majburiyatsiz Tizimning ishlashini va Tizimga taqdim etilgan kirishni to'xtatish huquqini o'zida saqlab qoladi.
  3. 2. 9. Operator Foydalanuvchi oldida hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi va unga har qanday yo'qotishlar, shu jumladan, Foydalanuvchi tomonidan oshkor etilishi, yo'qolishi yoki Foydalanuvchidan shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi, shuningdek, yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kechikishlar, ishdagi uzilishlar va Xizmat resurslaridan to'liq foydalana olmaslik tufayli kelib chiqishi mumkin bo'lgan zarar Operator tomonidan qoplanmaydi.
  3. 2. 10. Foydalanuvchining elektron pochta manziliga, mobil telefoniga, shaxsiy kabinetiga axborot va reklama elektron pochta xabarlarini va SMS-xabarlarini yuborish, Tizimdagi istalgan ma'lumotlarni tahrir qilish va nashr etish.
  3. 2. 11. Ofertani bekor qilgandan yoki amal qilish muddatini to'xtatgandan so'ng, Operator Tizimdan barcha Foydalanuvchi ma'lumotlarini ularni qayta tiklash imkoniyatisiz o'chirishga haqli. Shu bilan birga, Operator Foydalanuvchining autentifikatsiya ma'lumotlari bilan bog'liq har qanday majburiyatlaridan ozod qilinadi.
  3. 2. 12. Ro'yxatdan o'tish vaqtida uchinchi shaxslarning ma'lumotlaridan ularning roziligisiz foydalanilganligi aniqlansa, Foydalanuvchining akkauntini o'chirib tashlash.
3. 3. Operator Tizimga foydalanish uchun "qanday bo'lsa shunday" tamoyilini taqdim etadi va Tizim ishida xatolarning yo'qligini kafolatlamaydi, Tizimning to'xtovsiz ishlashi va uning Foydalanuvchining dasturiy ta'minot hamda texnik vositalari bilan mosligi, yuzaga kelgan yoki Tizimdan foydalanganlik sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday yetkazilgan zarar uchun, telekommunikatsiya va energiya tarmoqlaridagi uzilishlar, zararli dasturlarning harakati, shuningdek, uchinchi shaxslarning Tizimning dasturiy va/yoki apparat kompleksiga ruxsatsiz kirish va/yoki uni ishdan chiqarishga qaratilgan harakatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
3. 4. Foydalanuvchining majburiyatlari:
  3. 4. 1. Oferta akseptidan oldin, ushbu Oferta mazmuni bilan tanishib chiqish va ushbu Shartnoma shartlarini to'g'ri bajarish.
  3. 4. 2. Tizimda ro'yxatdan o'tishda ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish, shuningdek ularni Tizimdan foydalanish jarayonida o'z vaqtida yangilash.
  3. 4. 3. Tizimdan Shartnomada ko'rsatilgan shartlarga ko'ra foydalanish.
  3. 4. 4. Uskunani o'rnatish uchun tegishli choralarni ko'rish.
  3. 4. 5. Operatorning Tizimidagi har qanday texnik xatolar yoki buzilishlar haqida Operatorni xabardor qilish.
  3. 4. 6. [www.supply.smartpos.uz](http://www.supply.smartpos.uz) <http://www.smartpos.uz> saytida e'lon qilingan Oferta shartlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni mustaqil ravishda kuzatib borish.
  3. 4. 7. Operator oldidagi majburiyatlarga rioya qilish, shu jumladan, kirish xizmatlari va Tizimning funksional imkoniyatlaridan foydalanish uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish.
  3. 4. 8. Operatorga Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar va ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish.

3. 4. 9. Foydalanuvchi tomonidan Operator oldidagi majburiyatlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda Operatorga yetkazilgan zararlar uchun to'liq javobgar bo'lish.
  3. 4. 10. Tizimga kirishda parollarni saqlash uchun to'liq javobgar bo'lish va ularni begona shaxslarga, shu jumladan, Operator xodimlariga bermaslik.
  3. 4. 11. Tizimdan O'zbekiston qonunchiligiga rioya qilgan holda faqat qonuniy maqsadlarda va qonuniy yo'llar bilan foydalanish.
  3. 4. 12. Tizim elementlarining kodini va/yoki tizimning ishlashi uchun zarur bo'lgan kodlar kompilyatsiya qilinmasin, qismlarga ajratilmasin, hech qanday tarzda o'zgartirilmasin va uning normal ishlashini buzish maqsadida tizimning ishlashiga boshqa tarzda aralashilmasin.
  3. 4. 13. O'z harakatlari bilan Operatorning ishbilarmonlik nufuziga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik.
3. 5. Foydalanuvchining huquqlari:
3. 5. 1. Tegishli sifatli xizmatlarni olish va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilgan holda Tizimning funksional imkoniyatlaridan foydalanish.
  3. 5. 2. Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq masalalar yoki texnik masalalar yuzasidan Operator mutaxassisiga murojaat qilish.
  3. 5. 3. Tizim ishida texnik ko'rinishdagi muammolar yuzaga kelgan, shuningdek, Foydalanuvchi tomonidan ruxsatsiz reklama, yoki tahtitdan iborat va/yoki virus borligiga shubha qilinayotgan fayllar olingan, shuningdek, uning Tizimga kirishida kimdir tomonidan ruxsatsiz foydalanilgani aniqlangan taqdirda vaziyatga oydinlik kiritish va zarur chora-tadbirlarni ko'rish maqsadida Operatorga murojaat qilish.
  3. 5. 4. Operator oldida qarzi yo'qligi va Tizimdan foydalangan holda tuzilgan bitimlar bo'yicha majburiyatlar belgilangan tartibda bajarilish sharti bilan ushbu Shartnomani bir tomonlama bekor qilish.
- 3.6. Foydalanuvchi tizimdan foydalanar ekan, Tizimdagi mavjud barcha saqlanayotgan Kontent, Operatorning materiallari, shuningdek, ularning tarkibidagi tuzilmasi (audiovizual asarlar, matnli va grafik materiallar, EHM uchun dasturlar, tovar belgilari)ni tan oladi va ular mualliflik huquqi, va boshqa intellektual mulk huquqlari bilan himoyalangan hamda Tizimdan foydalanish va ushbu Shartnomani tuzish natijasida ular Foydalanuvchiga o'tmasligiga rozi bo'ladi. Operatorning yozma ruxsatisiz har qanday o'zgartirish, nusxa ko'chirish, tarqatish, hosila asarlarni yaratish, uzatish, sotish va hokazolar taqiqlanadi.
3. 7. Foydalanuvchi ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlar uchun 100% oldindan to'lov amalga oshirmagan taqdirda, Shartnoma shartlariga muvofiq Foydalanuvchi tomonidan bunday majburiyatlarni bajarishi kerak bo'lgan paytdan boshlab, Operator Foydalanuvchining Tizimga kirishi va uning funksiyalaridan foydalanishini taqiqlab qo'yish huquqiga ega ekanligi haqida xabardor qilinadi va bunga rozi bo'ladi.

#### **4. TO'LOV MIQDORI VA TARTIBI**

4. 1. Foydalanuvchiga Xizmatning funksional imkoniyatlaridan foydalanishni ta'minlash uchun Operator haq oladi. Operator xizmatlarining narxi ushbu Shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan 1-ilovada aks ettirilgan Foydalanuvchi tomonidan tanlangan Tizim funksional imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. Foydalanuvchi ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlarning narxini belgilaydigan variantlar (funksiyalar) tarkibini mustaqil ravishda tanlaydi.
4. 2. Operator istalgan vaqtda xizmatlar narxini o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi, ushbu o'zgarishlarni e'lon qilish [www.supply.smartpos.uz](http://www.supply.smartpos.uz) saytida amalga oshiriladi.
4. 3. Foydalanuvchi Tizimda Ro'yxatdan o'tgandan keyin joriy oy uchun xizmatlar narxini 100% oldindan to'lov yo'li bilan amalga oshiradi. Keyingi oylar uchun to'lov Foydalanuvchi tomonidan oldingi to'langan hisob-kitob oyi tugashiga qadar (to'langan oying oxirgi kalendar kunigacha) 100% oldindan to'lov orqali amalga oshiriladi. Foydalanuvchi bir necha oy uchun oldindan to'lovni amalga oshirish huquqiga ega.
4. 4. Shartnoma bo'yicha to'lov naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi, hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi so'mida amalga oshiriladi. Operator hisobiga pul mablag'lari kelib tushgan sana to'lov sanasi hisoblanadi.
4. 5. Foydalanuvchi tomonidan ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq bunday majburiyatlar bajarilishi kerak bo'lgan paytdan boshlab foydalanuvchi tomonidan 100% avans to'lovining mavjud emasligi Operator tomonidan Tizimga kirishni va Tizimning funksional imkoniyatlaridan foydalanishni bloklash uchun asos bo'ladi. Tizimga kirishni va uning funksional imkoniyatlaridan foydalanishni qisman yoki to'liq blokirovka qilish Operatorning ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini buzish hisoblanmaydi. Tizimga kirishni qayta tiklash va uning funksional imkoniyatlaridan foydalanish faqat qarzni to'liq to'lash va Foydalanuvchi tomonidan mazkur Shartnomaga muvofiq o'z majburiyatlarini bajargan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin.
4. 6. Mazkur Shartnomaning amal qilish muddati davomida Tomonlar hisob-fakturalarni taqdim etish yo'li bilan moliyaviy shartlarni kelishib oladilar. Mazkur Shartnoma bo'yicha hisob-fakturalarni taqdim etish va to'lash cheksiz amalga oshirilishi mumkin.
4. 7. Agar Operator Hisobot davri tugaganidan keyin 3 (uch) kalendar kunigacha ko'rsatilgan xizmatlar sifati bo'yicha da'volarni olmasa, Operatorning majburiyatlari tegishli ravishda bajarilgan deb hisoblanadi va Foydalanuvchi tomonidan to'liq izohsiz qabul qilinadi.

## 5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5. 1. Ushbu Shartnomani bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalari va Shartnoma shartlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.
5. 2. Operatorning mualliflik huquqi va istisnoli huquqlarini buzganlik uchun jinoiy va fuqarolik javobgarligi nazarda tutilgan. Har qanday qoidabuzarliklar Operator tomonidan sudda ko'rib chiqiladi. Foydalanuvchilar tomonidan Operatorning istisnoli huquqlari buzilgan taqdirda, Operator Foydalanuvchiga Xizmatlarni taqdim etishni rad etishga, shuningdek, 200 (ikki yuz) BHM (bazaviy hisob miqdorlari) miqdorida, qiymatlar har bir qoidabuzarlik holati uchun, shuningdek, yetkazilgan barcha yo'qotishlar, shu jumladan, yo'qolgan foyda uchun kompensatsiya to'lashni talab qilishga haqli.
5. 3. Foydalanuvchi Tizimda Ro'yxatdan o'tish jarayonida o'zi haqida noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etishi, Tizimdan foydalanish jarayonida ko'rsatilgan ma'lumotlarning o'z vaqtida yangilanmaganligi, shuningdek, ularni uchinchi shaxslarga o'tkazishi va boshqa shaxslarga o'tkazilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf va zarar va/ yoki uchinchi shaxslarning ko'rsatilgan ma'lumotlarga yoki tizimga ruxsatsiz kirishiga olib kelgan harakatlari yoki harakatsizligi uchun javobgardir.
5. 4. Foydalanuvchi tomonidan Shartnoma shartlari buzilgan taqdirda, Operator istalgan vaqtda ogohlantirmasdan Foydalanuvchining Tizimga kirishini cheklash yoki bloklash huquqiga ega. Foydalanuvchi tomonidan Shartnoma shartlari buzilgan taqdirda, Foydalanuvchi Operatorga bunday harakatlar natijasida yetkazilgan zararni, shu jumladan, bevosita va bilvosita yo'qotishlarni qoplash majburiyatini oladi.
5. 5. Operator, har qanday zararlar, jumladan, boy berilgan foyda, Foydalanuvchiga, xususan, Operator tomonidan taqdim etilgan xizmatlardan foydalanish imkoni bo'lmasligi, jumladan, Tizimda va uning komponentlaridagi vaqtinchalik texnik buzilishlar va uzilishlar, Tizimga xizmat ko'rsatish bo'yicha rejali va rejadan tashqari tadbirlar, dasturli va apparatdagi xatoliklar, ishdagi uzilishlar, fayllarning yo'q qilinishi, vazifalarning o'zgartirilishi, kompyuterdagi yoki Foydalanuvchining boshqa texnik moslamasidagi nuqsonlar, ma'lumotlarni uzatish vaqtidagi kechikishlar va aloqa xizmatlari sifati bilan bog'liq boshqa vaziyatlar, jumladan, uzilishlar, beqaror aloqa, ma'lumotlarni uzatish tezligining etishmasligi, Internet tarmog'idagi noto'g'ri ishlash natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgar hisoblanmaydi. Bunday holda, xizmatlar to'g'ri ko'rsatilgan deb hisoblanadi va to'liq to'lanadi.
5. 6. Operator har qanday zarar, jumladan Tizimdan va uning komponentlaridan foydalanish natijasida kelib chiqqan har qanday bevosita va bilvosita oqibatlar, uchinchi shaxslar tomonidan Xizmatdan, Foydalanuvchining Shaxsiy kabinetidan, Foydalanuvchining identifikatsion ma'lumotlaridan ruxsatsiz foydalanish yuzaga kelgan, Foydalanuvchining Tizimdan foydalanish va xizmatlarni boshqarishdagi noto'g'ri harakatlanishi, shuningdek, Operator xizmatlariga uchinchi shaxslarning ruxsatsiz kirishi natijasida yetkazilgan zararlar uchun javobgar hisoblanmaydi.
5. 7. Operator taqdim etilgan Tovarlarning Foydalanuvchining asossiz kutishlari va uning subyektiv baholashiga mos kelmasligi, Foydalanuvchi tomonidan Tovarining tavsifi yoki modifikatsiyasi noto'g'ri tanlangan taqdirda Foydalanuvchi tomonidan Tofarlardan tegishlicha foydalanilmasligi uchun, Ta'minotchilar tomonidan sotilgan Tovarining sifati, shuningdek, ular tomonidan Tovarni Foydalanuvchiga yetkazish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Foydalanuvchi Tovarining sifati, miqdori, yaxlitligi, yetkazib berish muddati bilan bog'liq har qanday e'tiroz Tovar buyurtma qilingan Ta'minotchiga jo'natilishi lozim.
5. 8. Foydalanuvchi tomonidan mazkur Shartnoma shartlariga rioya qilinmagan, shuningdek, majburiyatlari lozim darajada bajarilmagan taqdirda, Operator ushbu Ommaviy Oferta Shartnomasini bir tomonlama tartibda bekor qilish va Foydalanuvchi o'z majburiyatlarini bajarmasligi natijasida yetkazilgan zararlarini, shu jumladan, sud xarajatlarini Foydalanuvchidan undirish maqsadida sudga murojaat qilish huquqiga ega.
5. 9. Foydalanuvchi o'zi yuklagan, yuborgan, uzatgan yoki Tizimda boshqa har qanday husulda mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlar uchun to'liq javobgar.
- 5.10. Shartnoma shartlariga muvofiq Operator tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun foydalanuvchi tomonidan to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, Foydalanuvchi Operatorga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov qiymatining 0,4% miqdorida, lekin qarz summasining 40% dan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima to'lash majburiyatini oladi. Penya va/yoki jarimalarni to'lash Foydalanuvchini o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini lozim darajada bajarishdan ozod etmaydi.
5. 11. Tomonlar Shartnomaning bajarilishiga bevosita yoki bilvosita to'sqinlik qiladigan fors-major holatlari, ya'ni Tomonlarning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, Shartnoma tuzish vaqtida ular tomonidan aytib bo'lmaydigan va ular sodir vaqtda ongli vositalar bilan oldini olishlari mumkin bo'lmagan vaziyatlar ta'siri tufayli mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmaganligi yoki tegishlicha bajara olmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladilar. Fors-major holatlariga quyidagilar kiradi: urush, harbiy harakatlar, qo'zg'olonlar, epidemiyalar, zilzilalar, suv toshqinlari, tabiiy yong'inlar, bo'ronlar, sanitariya-epidemiologik vaziyatning o'zgarishi, ofatlar, Shartnoma mavzusiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan hokimiyat organlarining harakatlari. Fors-major holatlaridan jabrlangan Tomon imkon qadar qisqa vaqt ichida, 5 (besh) kalendar kundan kechiktirmay, boshqa Tomonni voqea haqida yozma ravishda xabardor qiladi. Fors-major holatlari 60 (oltmish) kundan ortiq davom etgan taqdirda, Tomonlar mazkur Shartnomaning keyingi huquqiy taqdirini birgalikda belgilaydilar.

## 6. SHARTNOMA MUDDATI, SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

6. 1. Shartnoma Foydalanuvchi tomonidan Aksept qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Mazkur Shartnoma

noma'lum muddatga tuziladi. Tizim va uning funksional imkoniyatlaridan foydalanish huquqi Foydalanuvchi tomonidan Operator xizmatlari uchun to'lov amalga oshirilgan muddatga beriladi.

6. 2. Operator o'z xohishiga ko'ra, bir tomonlama tartibda, Foydalanuvchi bilan oldindan kelishilmagan holda, Oferta shartlariga o'zgartirishlar kiritish, Ofertani istalgan vaqtda qaytarib olish huquqini o'zida saqlab qoladi. Agar bunday e'londa o'zgartirishlarning kuchga kirishi uchun uzoqroq muddat belgilanmagan bo'lsa, <http://www.smartpos.uz> o'zgartirishlar kuchga kirgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kundan kechiktirmay barcha o'zgarishlar Operator tomonidan [www.supply.smartpos.uz](http://www.supply.smartpos.uz) rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. O'zgartirishlar saytda e'lon qilingan vaqtdan boshlab, Foydalanuvchi Operator tomonidan kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida xabardor qilingan hisoblanadi. Foydalanuvchi Operator tomonidan kiritilgan o'zgartirishlar bilan rozi bo'lmagan taqdirda, bunday o'zgartirishlar kuchga kiradigan sanadan oldin tegishli ariza yuborish orqali Shartnomadan voz kechish huquqiga ega. Operatorning bunday arizani 10 kun ichida qabul qilmaganligi, Foydalanuvchi tomonidan Shartnomaning o'zgartirilgan shartlarini so'zsiz qabul qilishini anglatadi.

6. 3. Foydalanuvchi istalgan vaqtda ro'yxatdan o'tgan pochta orqali, shuningdek, Operatorning elektron pochta manziliga Shartnomani bekor qilish sanasidan 30 (o'ttiz) kalendar kun oldin yozma xabarnoma yuborish orqali bir tomonlama tartibda Operator xizmatlaridan voz kechish va Shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Mazkur Shartnoma Foydalanuvchi tomonidan Operatorga mazkur Shartnomani bajarishni bir tomonlama rad etish to'g'risida yozma xabar yuborilgan kundan boshlab, 30 kalendar kundan keyin bekor qilinadi. Shartnomaning bekor qilinishi Foydalanuvchini moliyaviy majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

6.4. Shartnoma har qanday sababga ko'ra muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, mazkur Shartnomaga muvofiq Foydalanuvchi tomonidan to'langan to'lov qaytarilmaydi.

6. 5. Foydalanuvchi tomonidan ushbu Oferta shartlari buzilgan taqdirda (shu jumladan, bir martalik), Operator istalgan vaqtda Shartnomani bajarishni rad etishga, Tizimga kirishni va undan foydalanishni butunlay blokirovka qilishga haqli. Bunda Foydalanuvchini yozma ogohlantirish talab qilinmaydi. Bunday hollarda Foydalanuvchi tomonidan ushbu Shartnomaga muvofiq to'langan to'lov qaytarilmaydi.

6. 6. Operator mazkur Shartnomani sabablarni tushuntirmasdan va istalgan vaqtda, Foydalanuvchiga tegishli xabar yuborish yo'li bilan bir tomonlama bekor qilish sanasidan o'n kalendar kun oldin, har qanday qulay usulda, jumladan, elektron pochta manzilga, shaxsiy kabinetga yuborish huquqiga ega. Bunda Tomonlar bu haqda lozim darajada xabardor qilingan Foydalanuvchi esa uning manziliga buyurtma xat jo'natilgan vaqtdan boshlab, Foydalanuvchidan xatni olganligi haqidagi xabarnomani tasdiqlamasidan va/yoki Operatorning elektron manziliga jo'natilgan matnli elektron xati olinganligi tasdiqlanmasidan xabarnoma jo'natilgan deb belgilashadi.

## **7. NIZOLARNI TARTIBGA SOLISH.**

7.1. Shartnomani bajarish bilan bog'liq har qanday nizo yoki kelishmovchilik yuzaga kelgan hollarda, Tomonlar ularning vakolatli vakillari o'rtasida muzokaralar olib borish orqali ularni hal qilish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradilar.

7. 2. Tomonlar o'rtasidagi barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Muzokaralar jarayonida Tomonlar o'rtasida kelishuv mavjud bo'lmasa, nizolar majburiy da'vo tartibiga rioya qilgan holda, Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida sud tartibida hal etiladi. Da'voni qabul qilgan Tomon uni ko'rib chiqishi va boshqa tomonga da'vo kelib tushgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kuni ichida yozma asosli javob yuborishi shart.

## **8. SHAXSIY MA'LUMOTLAR**

8. 1. Foydalanuvchi Operatorga Tizimda ro'yxatdan o'tish paytida, shuningdek, Tizimdan hamda uning funksional imkoniyatlaridan foydalanish jarayonida kiritilgan shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va qayta ishlashga rozilik beradi. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va qayta ishlash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: Foydalanuvchiga Tizimdan foydalanish huquqini berish; Foydalanuvchi bilan aloqa qilish, shu jumladan, Tizimdan foydalanish va xizmatlarni taqdim etish bo'yicha bildirishnomalar, so'rovlar va ma'lumotlarni yuborish; marketing, tahliliy va boshqa tadqiqotlarni o'tkazish.

8. 2. Foydalanuvchining Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligi Operatorga quyidagi: O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va hajmda ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlashning avtomatlashtirilgan vositalaridan foydalangan holda/foydalanmasdan tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlik kiritish (yangilash, o'zgartirish), foydalanish va tarqatish, Shaxsiy ma'lumotlarni depersonalizatsiya, blokirovka qilish va yo'q qilish kabi huquqlarni beradi.

8.3. Operator O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Shartnomaga muvofiq Foydalanuvchining Shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash, shuningdek, qayta ishlangan Shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va himoyasini ta'minlash majburiyatini oladi. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashda Operator Foydalanuvchidan olingan shaxsiy ma'lumotlarni ularga ruxsatsiz yoki tasodifiy kirishdan, shaxsiy ma'lumotlarni yo'q qilishdan, o'zgartirishdan, blokirovka qilishdan, nusxalashdan, taqdim etishdan, tarqatishdan, shuningdek, Foydalanuvchidan olingan Shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan boshqa noqonuniy harakatlardan himoyalash uchun zaruriy bo'lgan huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko'radi.

8.4. Operator Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlaridan marketing, reklama va axborot maqsadida foydalanish, jumladan, reklama aksiyalari haqida xabardor qilish, yangiliklar va biznes takliflari va h. k. larni yuborish huquqiga ega.

8.5. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligi Tizimdan foydalanish muddati davomida, shuningdek, Foydalanuvchi tomonidan Tizimdan foydalanish to'xtatilgan sanadan boshlab 3 (uch) yil mobaynida amal qiladi.

## 9. BOSHQA SHARTLAR

9. 1. Tomonlar elektron pochta orqali yuborilgan hujjatlar matnlarining qonuniy kuchini qog'ozga oddiy yozma shaklda bajarilgan hujjatlar bilan bir qatorda tan oladilar. Tomonlar elektron pochta manzillariga yuborilgan barcha yozishmalar, xabarnomalar, bildirishnomalar shaxsiy kabinetga tegishli shaklda yetkazilganligiga rozilik bildiradi. Tomonlar elektron pochta manzili, kontakt ma'lumotlarini o'zgartirgan vaziyatlarda o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritish, elektron pochta manzillariga kelgan xatlarni o'z vaqtida tekshirish majburiyatlarini oladilar.

9. 2. Rekvizitlar o'zgargan taqdirda, Tomonlar 2 kun mobaynida bunday o'zgarishlar to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishlari shart. Aks holda, oxirgi ma'lum manzilga yuborilgan xabarlar tegishli ravishda uzatilgan deb hisoblanadi.

9. 3. Tomonlar agar Shartnoma qoidalaridan birortasi qonunchilikda yoki boshqa sabablarga ko'ra uning amal qilish muddatiga mobaynida haqiqiy emas bo'lsa, Shartnomaning boshqa qoidalari uning amal qilish muddati davomida Tomonlar uchun majburiy ekanligini tan oladi. Shartnomaning biron-bir qoidasining haqiqiy emasligi Ofertaning umuman bekor qilinishiga olib kelmaydi.

9. 4. Mazkur Shartnoma Tomonlar rekvizitlari, ularning ta'sis hujjatlari, tashkiliy-huquqiy shakli, Tomonlar egasi o'zgargan hollarda ham o'z kuchida qoladi. Shartnoma Tomonlaridan birining rekvizitlari o'zgargan taqdirda, bunday Tomon boshqa tomonni 3 (uch) ish kuni ichida xabardor qilish majburiyatini oladi.

9. 5. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha holatlarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq faoliyat olib boradi.

### OPERATOR:

**“CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION” MChJning**

100090, O'zbekiston Respublikasi

Toshkent sh., Yakkasaroy tumani,

A, Qahhor ko'chasi, 9-tor ko'cha 1-a uy

STIR: 306 344 019

h/r: 2020 8000 4050 6594 4001

“TRASTBANK” XAB Toshkent shahri

MMT: 00491, bank STIRi: 201 055 090

IFUK: 58290

tel: +998 (55) 500-11-10

e-mail: [info@smartpos.uz](mailto:info@smartpos.uz)

[www.supply.smartpos.uz](http://www.supply.smartpos.uz)

**Direktor Ko A.N.**

**OMMAVIY OFERTAGA**

**1- ILOVA**

**Smartpos Supply Tizimidan**

**Foydalanish tartibi.**

## FUNKSIONAL IMKONIYATLAR

№	OPSIYA	QIYMATI (oyiga so'm)	IZOH
1			
2			
3			
4			
4			
5			
6			

<b>7</b>			
<b>8</b>			
<b>9</b>			
<b>10</b>			

**OPERATOR:**

**“CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION” MChJning**

**Direktor Ko A.N.**